



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | |
|---|-------|
| <i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI | 13-19 |
| <i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK | 20-24 |
| <i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN | 25-29 |
| <i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА | 30-37 |
| <i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI | 38-44 |
| <i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI | 45-50 |
| <i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA | 51-54 |
| <i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI | 55-60 |
| <i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN | 61-67 |
| <i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR | 68-71 |
| <i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 72-78 |
| <i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) | 79-84 |

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

| | |
|---|-------|
| <i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH | 85-89 |
|---|-------|

| | |
|---|---------|
| <i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i> | |
| РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ | |
| УЗБЕКИСТАН | 90-98 |
| <i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> | |
| QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ | |
| XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI | 99-106 |
| <i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> | |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH | |
| YO'LLARI | 107-113 |
| <i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> | |
| CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI | |
| OSHIRISH YO'LARI | 114-121 |
| <i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> | |
| MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI | 122-132 |
| <i>Komilov Bakhtiyorjon</i> | |
| UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA | 133-144 |
| <i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> | |
| MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI | |
| TAKOMILLASHTIRISH | 145-150 |
| <i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> | |
| DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI | 151-155 |
| <i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> | |
| MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 156-160 |
| <i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> | |
| DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH | |
| MASALALARI | 161-166 |
| 09.00.00 – FALSAFA FANLARI | |
| <i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> | |
| ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING | |
| ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI | 167-175 |
| <i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> | |
| FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI | 176-179 |
| <i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> | |
| BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT | |
| TARAQQIYOTINING ASOSI | 180-184 |
| <i>Berdaliyeva Sevara</i> | |
| ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE | |
| IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" | 185-191 |
| <i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> | |
| SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI | 192-197 |
| <i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> | |
| IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY | |
| ASOSLARI VA AHAMIYATI | 198-202 |

| | |
|---|---------|
| <i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> | |
| ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI | 203-206 |
| <i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i> | |
| AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI | 207-213 |
| <i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i> | |
| EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI | 214-219 |
| <i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> | |
| MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT | 220-225 |
| <i>Ismoilov Maxammadixon</i> | |
| HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI | 226-230 |
| <i>Shokirov Murod Rustamovich</i> | |
| YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI | 231-234 |
| <i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> | |
| YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI | 235-239 |
| <i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> | |
| ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) | 240-243 |
| <i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> | |
| INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI | 244-249 |
| <i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> | |
| BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA | 250-253 |
| <i>Ibragimov Kudrat</i> | |
| XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI | 254-260 |
| <i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> | |
| VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI | 261-267 |
| <i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> | |
| RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI | 268-274 |
| <i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> | |
| YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI | 275-281 |
| <i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> | |
| IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI | 282-285 |

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

| | |
|---|---------|
| <i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> | |
| SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) | 286-289 |
| <i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> | |
| MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH 290-296 | |
| <i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i> | |
| "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI | 297-302 |
| <i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i> | |
| RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" | 303-308 |
| <i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> | |
| TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA | 309-316 |
| <i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> | |
| TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI | 317-321 |
| <i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> | |
| SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI | 322-326 |
| <i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> | |
| PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES | 327-331 |
| <i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> | |
| OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI | 332-338 |
| <i>Babayeva Iroda</i> | |
| THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING | 339-342 |
| <i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> | |
| USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE..... | 343-346 |
| <i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> | |
| JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) | 347-351 |
| <i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> | |
| TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI | 352-357 |
| <i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> | |
| KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 358-363 |
| <i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI | 364-368 |
| <i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI | 369-373 |

| | |
|--|---------|
| <i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> | |
| SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI | 374-378 |
| <i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> | |
| MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI | 379-385 |
| 12.00.00 – YURIDIK FANLAR | |
| <i>Muhitdanova Firuza</i> | |
| КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА | 386-393 |
| <i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> | |
| HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI | 394-403 |
| <i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i> | |
| INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH | 404-414 |
| <i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> | |
| MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI | 415-419 |
| <i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i> | |
| JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI | 420-425 |
| <i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i> | |
| JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI | 426-430 |
| <i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> | |
| INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI | 431-436 |
| <i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> | |
| BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI | 437-441 |
| <i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i> | |
| IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI | 442-447 |
| <i>Shermatov Nuriddin</i> | |
| RAQAMLI ERA DA SUN'iy INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA | 448-455 |
| <i>Juraeva Asal</i> | |
| EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS | 456-461 |
| <i>Собиров Сайдбек Махмудович</i> | |
| ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ | 462-467 |
| <i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> | |
| DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH | 468-478 |

| | |
|--|---------|
| <i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> | |
| INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI | 479-485 |
| <i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> | |
| SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR | 486-491 |
| <i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> | |
| MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI | 492-500 |
| <i>Yusupov O'ktamboy</i> | |
| KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI | 501-509 |
| <i>Murodxonov Muhammadnur</i> | |
| XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI | 510-518 |
| <i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> | |
| МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ | 519-523 |
| <i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i> | |
| JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI | 524-530 |
| <i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> | |
| SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI | 531-536 |
| <i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> | |
| ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ | 537-542 |
| 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI | |
| <i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> | |
| AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI | 543-547 |
| <i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI | 548-554 |
| <i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> | |
| 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH | 555-561 |
| <i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> | |
| KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH | 562-569 |

| | |
|---|---------|
| <i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> | |
| MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI | 570-576 |
| <i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> | |
| IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA | 577-582 |
| <i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i> | |
| ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ | 583-585 |
| <i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> | |
| TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR | 586-592 |
| <i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> | |
| OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI | 593-598 |
| <i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> | |
| YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI | 599-605 |
| <i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> | |
| BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI | 606-610 |
| <i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> | |
| BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI | 611-614 |
| <i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> | |
| AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI | 615-621 |
| <i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> | |
| BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI | 622-625 |
| <i>Elova Sitora Axmatkulovna</i> | |
| QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI | 626-629 |

Received: 25 January 2025

Accepted: 1 February 2025

Published: 10 Febrary 2025

Article / Original Paper

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TYPES OF MODALITY FORMED AS CATEGORY

Khamidova Sayyora Nurmatovna

Fergana Polytechnic Institute,

Department of Uzbek language and language teaching,
senior teacher

Abstract. The article focuses on the logical modality as a category about the clarity or uncertainty of the judgment about the situation existing in human thinking, the types and characteristics of the mutual subjective and predicative relationship.

Keywords: type of judgment, linguistic modality, level of validity of information, logic, important sign of judgment, human thinking, cognition, types of mutual subjective and predicative.

KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xamidova Sayyora Nurmatovna,

Farg'ona politexnika instituti,

O'zbek tili va tillarni o'rnatish kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mantiqiy modallik inson tafakkurida mavjud holat to'g'risidagi hukmning aniq yoki noaniqligi, tasvirlanayotgan predmet va uning belgisi orasidagi o'zaro subyektiv va predikativ aloqaning turlari, xususiyatlari haqidagi kategoriya sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: hukm turi, lingvistik modallik, ma'lumotlarning asoslanganlik darajasi, mantiqshunoslik, hukmning muhim belgisi, inson tafakkuri, kognitsiya, tasvirlanayotgan predmet va uning belgisi orasidagi o'zaro subyektiv va predikativ aloqaning turlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N58>

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy metod elementlaridan (tanlash, tasnif, leksik materiallarni izohlash); qiyosiy-tarixiy metod (etimologik tahlil o'tkazish va tilning diaxron holatiga ko'ra qiyoslab o'rganish); leksikografik tahlil; konseptual tahlil metodi; leksik-semantik maydonni aniqlash metodidan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tilida modal tuzilish uzvlarini lisoniy-kognitiv yo'nalishda tadqiq etish tildagi mavjud modal birliklarni tarixiy-etimologik, semantik-stistik va lingvopragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'plangan materiallardan kelgusida tilimizdagи modal birliklarni lingvomadaniy, lisoniy-kognitiv jihatdan o'rganishning tadqiq usullarini belgilashda, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyat bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda ko'rinadi, to'plangan materiallar va tadqiqot natijalari

mazkur fanlarni o'qitish va bu sohalarga oid nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tishda manba sifatida xizmat qiladi.

Modallik keng tushuncha bo'lib, u o'ziga xos kategorial belgilarga ega. Uning turli sohalarga tegishlilik darajasi ham borki, uni shunga asosan maxsus turlarga ajratish yoki alohida sohalar kesimida talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Modallikning mantiqiy, fonetik, grammatik, kognitiv, pragmatik kategoriya ekanligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Mazkur maqolada modallikni mantiqiy kategorial xususiyatlariiga bat afsil to'xtalishni joiz deb topdik.

Modallik, avvalo, inson tafakkuri, kognitsiyasi bilan bog'liq jarayon ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa uning mantiqiy kategoriya ekanligini anglatadi. "O'zbek tilining mazmuniy sintaksi" da ta'kidlaganidek: modallik kategoriysi fikrning mantiqiy qurilishi bilan chambarchas bog'langan til hodisalari qatoriga kiradi. Shuning uchun modallik ham tilshunoslikning, ham mantiqning tekshirish obyekti. Birinchisida modallik gapning eng muhim belgisi sifatida qaralsa, ikkinchisida tafakkur shakli sifatidagi hukmning muhim belgisi sifatida qaraladi [1. B. 82].

Modallikning mantiq sohasidagi ahamiyati katta. Sababi inson fikri uning miyasida tartiblanadi. Tilshunoslik bilan bir qatorda mantiqning ham tekshirish obyekti sanalgan modallik tafakkur shakli sifatida hukmning muhim belgisi, aksidir. Qadimdan til va tafakkur masalasi dolzARB bo'lgan, bu ikki tushunchani bir-birida ayro qo'yish aslo mumkin emas, ular bir-birini to'ldiradi, bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi. Kishi tafakkurida shakllangan axborotlar jamlanmasi til orqali ro'yobga chiqadi. Tafakkurda qanchalik yaxshi "pishgan" fikr ifoda etilganda, pragmatik samara ham shunchalik yuqori bo'ladi. Tadqiqot nuqtai nazaridan ham til va tafakkurni ayro holda o'rganib bo'lmaydi. Kishi miyasida biror predmet hamda uning asosiy belgisi orasidagi o'zaro munosabat sintezlanadi, hosil bo'lgan axborot hukm orqali tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. "Hukm asosiy axborotdan tashqari unda ifodalangan aloqalarning turlari va xususiyatlari haqidagi qo'shimcha axborotlarni ham uzatadi. Birinchi holatda bunday axborot bir hukmning boshqa hukmga bog'liqligidan darak bersa, ikkinchi holatda unda ifodalangan ma'lumotlarning asoslanganlik darajasini ko'rasatadi, uchinchidan, hodisalar o'rtasidagi zamon, makon va boshqa munosabatlarga ishora qiladi va to'rtinchidan, axborot hukmda ko'rsatilgan aloqalarni baholaydi" [2. B. 8.].

Modallik tushunchasi kategoriya sifatida tilshunoslik hamda mantiqshunoslikka doir ishlarning asosiy obyekti. Ko'plab olimlar modallik lingvistik kategoriya va bu xislat ushbu tushunchaning birlamchi xususiyati deb hisoblasalar, boshqa olimlar esa, uni sof mantiqiy kategoriya sifatida baholaydilar. Bu esa grammatik modallik va mantiqiy modallikning uzviy ekanligiga ishora qiladi. Aytib o'tganimizdek, mantiqiy hukmda aks etgan modallik obyekt va uning belgisi, predmetlar orasidagi munosabatning real yoki norealligi masalasi birlamchi bo'lib, uni tasdiqlash yoki rad etish hukm orqali yuzaga chiqadi. Ushbu hukmning bayonot shaklida voqelanishida til hodisasining ahamiyati, modallikning lingvistika bilan bog'liq tomoni sanaladi. Inson ongida borliqda sodir bo'lgan voqealarni, holat hamda vaziyatlarni aks ettirar ekan, uning obyektiv olam haqidagi tasavvurlari kengayib boraveradi, o'zi qabul qilayotgan xabarlarni ham qabul qiladi yoki rad etadi.

Ushbu jarayon hukm orqali amalga oshadi. R.G.Aslinbayeva tomonidan hukmlarning quyidagi uch xil tabiatli borligi aytildi [3. B. 181].



3.1-rasm. Hukmnинг турлари.

So'zlovchi yoki tinglovchi uchun ham ushbu uch hukm turi zarur. Negaki, adresat ham adresant ham biror voqelik to'g'risidagi bayonotni qabul qilishda zarurati, imkoniyati bo'lishi kerakligi bilan birga haqiqatga ham tayanishga majbur. Lingvistik xarakterga ega bo'lgan gap kommunikatsiya jarayonida tabiiy holatda ikki tomonning o'zaro fikriy aloqalari va munosabatlariga ham bo'g'liq bo'ladi. Mana shu munosabatlar asosida hukm qabul qilinadi, ushbu hukmnинг yuzaga chiqish jarayoni modallikning lingvistik kategoriya sifatidagi xususiyati sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, lingvistik modallik mantiqiy modallikdan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Ya'ni, mantiqiy modallik insonning xarakter-xususiyati bilan bog'liq bo'lib, o'z kognitsiya darajasidan kelib chiqib hukm ifodalanadi. Fikr ifodalaran ekan, miyada o'ylab, rejalashtirilganidek voqelanmasligi mumkin. Sababi unga bir qancha omillar ta'sir etadi. Miyada qabul qilingan hukm originalligicha qoladi. Lingvistik modallikda mavzu va hukm belgisi o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini ma'lum darajada mantiqiy modallikning tabiatiga bog'liq boladi, ammo tilda bu munosabatlar yetarli darajada aks ettirilmaydi, chunki mantiqdagi atribut tushunchasi grammatikadagi atribut tushunchasidan ancha kengroq bo'lib, mantiqdagi modallikning o'ziga xos xususiyati har doim ham tildagi o'xshash modallik xususiyatiga mos kelmaydi" [4. B. 183].

Mantiqshunoslikka doir ko'plab adabiyotlar bilan tanishish jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, modallikni kategoriya sifatida shakllantiradigan vosita – bu hukm. Tashqi olamgan qabul qilingan axborot miyada tasdiqlanadi yoki inkor tiladi. Masalan, "2023-yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" yoki "2023-yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili emas". Mana shu hukm orqali inson voqelikka o'z munosabatini bildiradi. Mantiqiy modallikni huquq-tartibot faoliyati bilan uzviylikda tadqiq etgan olim A.Mavlyanov modallikning mantiqqa xos kategorial xarakteriga to'xtalib shunday deydi: Hukmnинг xarakterini asoslaydigan yoki predmet va uning belgilarini aks ettiruvchi subyekt bilan predikatning o'zaro bog'liqligi ifodalangan qo'shimcha ma'lumotga hukm modalligi deyiladi.

Modallik ko'p belgili hukmni ifodalaydi, unda haqiqat masalasi birlamchi bo'lib, hukm to'g'ri yoki noto'g'rili muhim ahamiyatga ega. Hukmlarni modal jihatdan tahlil qilishda mavjud hukmlar orasidagi munosabatlarni aniqlab olish, ularga qo'shimcha ta'riflar berish orqali amalga oshiriladi. Mana shu nuqtai nazardan modal hukmlarni mantiqan ehtimollik, mavjudlik va zaruriy turlariga bo'lamiz. Mantiqiy modallikda hukmnинг uchta turi ko'rsatiladi:

- Ehtimollik hukmi** predikat va subyekt belgisini taxminan tasdiqlaydi yoki inkor etadi:
Ehtimol, ertaga havo ilib qolar. Balki, uning uyida chiroq o'chgandir.
- Mavjudlik hukmi** predikat va subyekt belgisining mavjudligini tasdiqlaydi yoki inkor etadi: *Onaning betobligi uning horg'in va majolsiz yuzlaridan sezilib turibdi.*
- Zaruriy hukm** predikat va subyektga xos belgini albatta tasdiq yoki inkor etadi: *Tundan keyin tong otishi zaruriy hodisa.*

Aletik modallik. Aletik so'zi yunoncha "alethika" so'zidan tarjima qilinganda "haqiqat" degan ma'noni beradi. Aletik modallik subyekt va predikat o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni

yoki ularda aks etgan hodisalar o'rtasidagi haqiqiy bog'lanishlarni zarurat va imkoniyat terminlarida ifodalaydigan axborot. Aletik modallikda ifodalangan axborot subyekt bilan predikat o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Yoxud mavjudlik hodisalari o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Ana shu xususiyatlardan kelib chiqib aletik modallik ham ikki turga bo'linadi:

a) Faktik (dalilli) modallik – hukmdagi subyekt va predikat o'rtasidagi tasdiq yoki inkorning tashqi olam voqeа-hodisalari bilan bog'liqligini ifodalaydi. Faktik modallik ham o'z tarkibida ikki: chin va yolg'on modallik turlariga ajraladi. **Chin dalilli modallik** hukmlarda fikrning obyektiv reallikka muvofiq kelishi ifodalanadi. Masalan, "*O'zbek tiliga Davlat tili maqomi 1989-yilda berilgan*". Ushbu gap tasdiqlanadi, sababi u asosli, xabarning chinligini isbotlovchi faktlar mavjud. Faktik modallikning ikkinchi turi **yolg'on faktik modallikdir**. Unga ko'ra hukmlarda ifodalangan fikr obyektiv voqelikka mos kelmaydi. Masalan, "*Hamma ishning oxiriga yetish mumkin*". Keltirilgan gapning noaniqligi shundaki, ushbu voqelik amalga oshishi uchun dalil, fakt yetarli emas, ya'ni hamma ishning ham oxiriga yetmaslik mumkin degan hukm inson miyasida mavjud bo'lish ehtimoli yo'q emas. Shu sababli hukm bu ma'lumotni inkor etadi.

b) Mantiqiy modallik – hukmdagi subyekt bilan predikat o'rtasidagi bog'lanishning chin yoki yolg'on ekanligini (hukmlarning tarkibiy tuzilishi asosida) mantiqiy izohlaydi. Mazkur modalliklar hukmlarning mantiqiy tuzilishiga qarab, to'g'ri (chin) yoki noto'g'rilib (yolg'on) farqlashga xizmat qiladi. Jumladan, mantiqiy qonunlarning o'zi mantiqiy chin hukmlarga, o'zo'ziga zid fikrlarni ifodalovchi hukmlar esa mantiqiy yolg'on hukmlarga misol bo'lishi mumkin [5. B. 135].

2) Epistemik (bilishga oid) modallikda hukm orqali ifodalangan axborot qay darajada asosga ega ekanligi haqida qo'shimcha axborot beriladi. Ma'lumki, bilimlar tabiatiga ko'ra aniq va mavhum shakllarga ega bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra epistemik modallikni ham quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) Asoslangan (ishonchli) epistemik modallikda chinligi yoki yolg'onligi asoslangan bilimlar haqida so'z boradi va uni ishonchli bilimlar sifatida baholash mumkin bo'ladi. Ba'zi manbalarda ularni "isbotlangan", "rad etilgan" jumlalari bilan ham ifodalash mumkin, deb hisoblashadi. Misol: *Janjal bo'lgan tunda ukamning voqeа joyida bo'lganligi isbotini topdi*.

b) Muammoli (ehtimolli) modallik turida berilayotgan axborotdan olinadigan bilimlar yetarlicha asoslanmaganligini bildiradi. Masalan, "*O'zbek tilida unli tovushlar soni o'nta bo'lishi mumkin*". Bunday modallik turida jumlalarga ehtimollik, hukmi berilgan bilimlarning yetarlicha asoslanmaganligini anglatib, "ehtimol", "bo'lishi mumkin" kabi so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Misol: *Ehtimol, ellik yildan so'ng Yer yuzida hayot butunlay tugar*.

3) Deontik (me'yoriy) modallik inson xatti-harakatlarining muayyan me'yoriy umuminsoniy, axloqiy yoki huquqiy tizimlar doirasida muvofiqlashtiruvchi qoidalarda ifodalangan hukmdir. [6.B.166] Shu xususiyatlariqa qarab deontik modallikning quyidagi ko'rinishlarini alohida keltirish mumkin:

a) Huquqiy-majburiy qoidalari. Ular, odatda, "majbur", "shart", "kerak", "zarur" kabi so'zlar vositasida ifodalanadi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida belgilangan har bir moddaga amal qilish shart".

b) Huquqiy-taqiq qoidalarda amalga oshiriladogan harakat to'g'risidasgi hukm qay'ian taqiqlanadi. Shunga muvofiq bunday bilimlar "taqiqlanadi", "man etiladi", "yo'l

qo'yilmaydi", "mumkin emas" so'zları vositasida voqelanadi. Masalan, "*Institut ichki tartib-qoidalalarining buzilishiga yo'l qo'yilmaydi*".

c) Huquqiy-taqdim qoidalariDA biror kishining ma'lum huquqlarga, vakolatlarga ega ekanligi ifodalanadi. Shuningdek, bunday bilimlar "huquqiga ega bo'ladi", "huquqlidir", "haqli" kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan, "Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar".

Keltirilgan ma'lumotlar hamda misollardan ma'lum bo'ladiki, hukmda ifodalangan voqelikka qo'shimcha izoh berib, kishining borliqda hayot kechirish jarayonida ma'lum qoidalarga amal qilishi, uning harakatlarini muvofiqlashtirishga yo'naltiradi. Aynan shuning uchun ham huquqni muhofaza qilish sohasida mantiqiy modallikning ahamiyati yuqori turadi.

Mantiqshunoslikda modallik turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. XXI asrga kelib axborotlashtirish jarayonlari keskin jadallahib ketdi va natijada ko'plab soha vakillari modallikni vaqt bilan munosabati, ularning falsafiy bog'liqliklari masalasiga e'tibor kuchaydi.

Mantiqiy modallik, o'z navbatida, lingistik modallik bilan uzviy bog'liq. Ularning aloqasi genetik nuqtayi nazardan bog'langan. Sababi, ularning kelib chiqish nuqtasi inson tafakkuri bo'lsa, voqelanishi til bilan bog'liq bo'ladi. Tarixda ko'plab asarlarda modallikka xos xususiyatlar mantiq bilan bog'lanib talqin qilingan. Masalan, Arastuning haqiqat, tafakkur qonunlari, tushuncha, hukm, xulosa, kategorik sillogizmlar, isbotlashlar bilan birqalikda modalliklar haqidagi ta'limoti ham mantiq ilmining mustaqil fan sifatida shakllanishida muhim o'rinn tutgan. Uning fikricha, haqiqat, eng avvalo, hukmlarning chinligini anglatadi, ya'ni muayyan narsa yoki hodisa haqidagi fikrimiz voqelikdagi mavjudlikka mos bo'lgandagina haqiqat bo'lishi mumkin. Uning ta'limotida mantiqiy qonunlarning asosiysi sifatida "ziddiyat qonuni" ko'rsatiladi. Bu qonunga binoan bir vaqtning o'zida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki fikr aynan bir narsaga nisbatan chin bo'la olmaydi. Modal qiymatlarni genetik jihatdan ifodalash mantiqiy modallikka xos jarayondir. Biror voqelik to'grisidagi bilimlar tafakkurda hukm shaklida ifoda topsa, u voqelanganda mantiqda ifodalanmasdan qolgan jihatlari, shakllari lingistik nuqtayi nazardan chiqarib beriladi. Mantiqda modallikning imkoniyat, zarurat va haqiqat kabi turlari kategoriya doirasiga singdirib yuboriladi va hukm ifodalashda ularni teng taqsimlaydi. Ushbu jarayon til va tafakkurning hamkorlikdagi harakatiga misol bo'la oladi.

Avvalgi boblarda modallikning ikki turi, ya'ni obyektiv hamda subyektiv modallik haqida to'xtalib o'tilgan edi. Mantiqiy modallikda ham xuddi shunday bo'linish mavjud. Biroq ular sohalar kesimida biroz farqlanadi. Mantiqshunoslar modallikni "haqiqat" yoki "yolg'on", ya'ni mantiqli va mantiqsiz sifatiga ega bo'lgan jarayon deb biladi. Tilshunoslar esa modallikni munosabat ko'rinishida talqin qiladi. Ularning har ikkalasi ham o'ziga xos tarzda konseptuallashadi. Bir qarashda, modallikning tilshunoslik va mantiqshunoslik jihatidan mushtarak ekanligi ko'zga tashlansa-da, ular bir-birida keskin farq qilishini ham alohida qayd etish lozim. Jamiyatda til sof kommunikativ vazifani bajarishga mo'ljallangan. U uzoq davrlardan buyon aloqa vositasi bo'lib insoniyatga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarni bajarishda modal qiymatlarning ancha keng doirasi ifodalanishi, hattoki turli xil hissiy-ekspressiv, emotsiyal vositalardan ham foydalanishi lozim bo'ladi. Shuga muvofiq til kategoriysi sifatida leksik, grammatik va semantik qoidalarga amal qilishi ham muhim. Mantiqshunoslikda esa bunday o'rnlarga sinchkovlik bilan e'tibor qaratilmaydi, sababi, bu xususiyatlar mantiqiy kategoriallikka xos emas.

Modallik mantiq va tilshunoslikning tekshirish obyektlaridan biri ekan, o'zbek tilshunos olimlari yaratilgan manbalarga tayangan holda modallikni mantiqiy kategoriya sifatida talqin qilish joiz deb hisoblashadi. Sababi, har qanday hukm gap orqali yuzaga chiqadi, gap esa voqelanishidan oldin qat'iy hukm tarzida tafakkurda paydo bo'ladi. Shu asosda gap orqali ifodalanadigan hukmnинг ikki ko'rinishi mavjud: birinchisi, propozitsional vazifa bajaradigan hukm, ikkinchisi unga predikatsiyalangan hukm shakli. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisida propozitsional funksiya sifatidagi hukm strukturası N o'rinni predikat va uning argumentlari munosabatidan iborat. Bunday hukm strukturası ikki qismidan (agar predikat bir o'rinni bo'lsa) yoki uch va undan ortiq qismidan (agar predikat ko'p o'rinni bo'lsa) tashkil topashi aytib o'tilgan.

Kommunikatsiya jarayoni adresat va adresant ishtirokisiz amalga oshmaydi. Ushbu jarayonning maqsadli kechishida subyekt va predikat masalasi muhim sanaladi. Bildirilayotgan fikrlar, borliq haqidagi axborotlar obyektiv olam realliklarini aks ettirishi lozim. Aks holda noreal bildirilgan fikr tinglovchining ushbu axborotni rad etishiga olib keladi. Hukmnинг bu ikki sathdagi strukturası gap strukturasida ham o'zining shakliy ifodasiga ega bo'lib, til kategoriyasi sifatida gapning sintaktik tuzilish elementi sifatida, qolaversa, mantiqiy-grammatik tarkiblanish orqali namoyon bo'ladi. Kelib chiqadiki, modallik gapning aktual bo'linishi bilan chambarchas bog'liq kategoriyadir.

Tilshunoslikka doir qilingan ko'plab ishlarni kuzatganimizda, aynan mantiqiy modallik masalasiga doir tadqiqotlarning juda kam ekanligiga guvoh bo'ldik. Ayrim ishlarda keltirilgan ma'lumotlar boshqalari bilan bir xillikni tashkil etadi. Demak, mazkur mavzu bo'yicha yangi tadqiqotlarni amalga oshirish oldinda turgan asosiy vazifalar qatoriga kiradi.

Xulosa. Ttilshunoslik va falsafada modallik tilning haqiqat yoki haqiqat bilan turli xil munosabatlarni ifoda etish usullarini anglatadi. Biroq, modal komponentlar tabiiy tilning son-sanoqsiz ifodalari, jumladan, qarama-qarshiliklar, taklif munosabatlari, dalillar, odatlar va umumlashmalar ko'rinishida aniqlangan. Modallik turli nuqtayi nazardan intensiv o'rganilgan. Tilshunoslik doirasida tipologik tadqiqotlar modallikni belgilash uchun ishlatiladigan strategiyalardagi tillararo farqlarni kuzatib boradi, uning vaqt – aspekt – kayfiyat belgilari bilan o'zaro ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi. Nazariy tilshunoslар modal mantiqdan olingan rasmiy vositalar yordamida modal iboralarning propozitsion mazmunini ham, diskursiv ta'sirini ham tahlil qilishga harakat qilishdi. Falsafada lingvistik modallik ko'pincha zarurat va imkoniyatning kengroq metafizik tushunchalariga kirish vositasi sifatida qaraladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

- Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент, 1992. – Б. 82.
- Aliyeva M. O'zbek tilida modal ma'no ifodalovchi lingvistik vositalar. Magistr darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Andijon, 2011. – В. 8.
- Алсынбаева Р.Г. Логическая и лингвистическая сущность категории модальности. Вестник Башкирского университета. 2013. Ташкент, №1. – С. 181.
- Агазаде Н. К. К вопросу о категории наклонения и модальности в современном азербайджанском языке. –Баку: Изд- во Акад. наук АзССР, 1965. – С. 183.
- Mavlyanov A. A. Mantiq: Ma'ruzalar kursi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 135 b.
- Mavlyanov A. A. Mantiq: Ma'ruzalar kursi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. – 135 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).